



RANGLARNING BADIY IFODA VOSITASI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI

Sauranova Muhliisa Elmurod qizi

Guliston davlat universiteti

Rangtasvir: dastgohli yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ranglarning inson ruhiyati, ma'naviy dunyosi va sog'lig'iga ta'siri, ranglarning yorug'lik bilan bog'liqligi, ularning ijobiy va salbiy psixologik ta'siri hamda tabiat manzaralaridagi ranglar uyg'unligining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari va san'atkorlarining ranglar haqidagi qarashlari, rang nomlari va ularning ramziy ma'nolari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada ranglar xususiyatlarini tasviriylar san'at va ta'lim jarayonida o'rganishning ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Rang, xususiyat, kayfiyat, idrok, tasvir, o'zaro ta'sir, uyg'unlik kontrast, makon, vaqt, yorqinlik, to'yinish, tus.*

"Go'zallik dunyoni qutqaradi"

F.Dostoyevskiy.

Inson hayotining har bir onida ranglar bilan to'qnash keladi va aynan shu ranglar uning ichki olami, kayfiyati hamda ma'naviy dunyosini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, ranglar inson ruhiyatiga har lahzada ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatish qudratiga ega. Yorug'lik mavjud bo'lgan makondagina ranglar namoyon bo'ladi. Masalan, kechki payt xonadoningizda chiroq o'chib qolsa, atrof-muhit bir zumda qorong'ulik og'ushiga cho'madi. Bunday vaziyatda insonda siqilish, tushkunlik, noaniqlik hissi paydo bo'ladi. Ko'z qorachig'ining kengayishi, yurak urishining o'zgarishi esa ushbu holatning jismoniy sog'liqqa ham salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Aksincha, bahor faslida tabiat qo'yniga sayrga chiqqaningizda, toza havodan tashqari, qir-adirlarni bezagan rang-barang gullar, yam-yashil maysalar, musaffo osmon va tog' cho'qqilaridagi oppoq qor manzarasi inson qalbiga quvonch bag'ishlaydi. Natijada ruhiy tetiklik ortadi, hayotga va tabiatga bo'lgan mehr yanada mustahkamlanadi. Shu bois ham qadimiy qo'lyozmalarda qayd etilganidek, tabiblar bahor oylarida qir-adirlarga sayohat qilishni inson salomatligi uchun foydali deb tavsiya etganlar.

Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kamoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma'nolari, inson sog'lig'iga



ta'siri va boshqalar haqida juda ko'p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy o'zining «Kitob al javohir fi ma'rifat al javohir» (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning ramziy ma'nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba'zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: alvon, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug'doyrang, bo'z gulgun, jigarrang, zangori, za'faron, zumrad, qahrabo, kulrang, ko'k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, oq, pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar, samorang, sur, feruza, uchoq kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag'iz, qoracha qo'ng'ir, havorang, anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo'ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg'aldoq, kaptar bo'yin, ko'kimtir, lilovi, lim urang, maykaylik mikori, novvot rang, nilobi, nim tatir, nim pushti, norgul, olovrang, olmatakori, oq upa suvi, sabzi rang, samak kesaksiyo, sir, sovot, surmarang, tillarang, tupori to'liq, to'tiyoyi va boshqalar. Afsuski, yillar, asrlar o'tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma'nosi hamda ularning tili yo'qolib ketish arafasiga kelib qoldi⁶¹.

Ranglarning ramziy ma'nolari xalqning dunyoqarashi, hayot tarzi, urf-odatlar va estetik didi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, oq rang poklik va ezgulik timsoli, qora rang esa sokinlik yoki qayg'u ramzi sifatida talqin etilgan. Qizil rang hayot, quvvat va jo'shqinlikni anglatadi, yashil rang tabiat, yangilanish va osoyishtalikni ifodalagan. Ushbu ramziy ma'nolar tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati, me'morchilik hamda adabiyotda keng qo'llanilgan. Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V. Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rangli ekanligini isbotlagan. Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o'rgangan bo'lsa, nemis shoiri va san'atshunosi I.V. Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri ko'proq qiziqtirgan. U "Ranglar haqidagi ta'limot" nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tushlarga ajratgan. Iliq (sarg'ish, qizil) ranglar kishida kayfichog'lik tuyg'usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa ma'yuslik tuyg'usini uyg'otishi haqida yozgan⁶².

Tasviriy san'atda ranglar nafaqat shakl va predmetni ifodalash, balki asarning g'oyaviy mazmunini kompozitsiyasini ochib berish vositasi sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Rassom ranglar kompozitsiyasini to'g'ri tanlovi

⁶¹ S.S.BULATOV "Rangshunoslik" Darslik O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2009. 9-b.



orqali tomoshabinning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi, muayyan hissiyotlarni uyg'otadi va obrazning ichki mohiyatini ochib beradi. Ranglar o'rtasidagi uyg'unlik yoki qarama-qarshilik kompozitsiyaning badiiy ta'sirchanligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ranglar xususiyatlarini o'rganish, ularning psixologik, estetik va ramziy jihatlarini chuqur tahlil qilish bugungi ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tasviriy san'at darslarida ranglar haqidagi bilimlarni tarixiy manbalar va milliy meros bilan bog'liq holda o'rgatish o'quvchilarning estetik tafakkurini boyitadi, milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini kuchaytiradi. Yuqorida ranglar inson hissiyotiga bevosita ta'sir qilishini kuzatdik. Shuning uchun rassom tasvir yaratayotganda rang tanloviga juda ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Ranglardan: qizil - kuch, energiya, shijoat, ehtiros, ko'k - osoyishtalik, xotirjamlik, sovuqlik, yashil - tabiiylik, uyg'unlik, barqarorlik, sariq - quvonch, yorug'lik, iliqlik, binafsha - sirli, chuqur, romantik kayfiyat, jigarrang - yerlik, barqaror, sodda tuyg'ularni beradi.

Ranglarni psixologik jihatdan to'g'ri qo'llash tasvirning ma'nosini kuchaytiradi. Rangtasvirda eng muhim tushunchalardan biri koloritdir. Kolorit tasvirdagi barcha ranglarning uyg'un holda ishlatilishidir. U asardagi holatni, vaqtni va kayfiyatni belgilaydi. Masalan: issiq kolorit tong, yoz fasli, yorqin kayfiyatni, sovuq kolorit qish fasli, tumanli kun, osoyishtalikni, kontrastli kolorit keskin tuyg'ular, harakatni, sokin kolorit mulohaza, tinch kayfiyatni bildiradi. Rang uyg'unligini topish rassomning eng nozik mahorati hisoblanadi. Rang ko'zga ko'rinadigan oddiy hodisa emas, u inson ruhining ko'z ilg'amas jarayonlari bilan bog'langan murakkab til hisoblanadi. Har bir rang o'zicha "hayot kechiradi", o'ziga xos fe'l-atvori, kayfiyati va hattoki "xotirasi" ham bor. Rassom ranglardan foydalanganda aslida bo'yoqlar bilan emas, ranglarning ichki tabiati bilan muloqot qiladi. Ko'pchilik rangni mustaqil deb o'ylaydi, lekin bu noto'g'ri. Biror rangning asl qiyofasi faqat boshqa ranglar yonida bilinadi. Yolg'iz ko'k rang osmonni eslatsa, uning yoniga sariq qo'yilsa, birdaniga ko'k yanada chuqur, sovuq va ehtiyotkor bo'lib ko'rinsa boshlaydi. Demak, rangning xususiyati o'zgalar bilan qanchalik uyg'un yoki qarama-qarshi bo'la olishida. Qizig'i shundaki, ranglar vaqt bilan ham bog'liq. Tong otganda ranglar yengil, suyuq, havo singari shaffof bo'ladi. Kunduzi ranglar qat'iylashadi, chegaralari aniq bo'ladi, kechga borib esa ranglar "charchaydi", o'chadi, xuddi kunning o'ziga o'xshab sekin-asta sust tortadi.

Xulosa qilib aytganda, ranglar faqat ko'z orqali idrok etiladigan bo'yoqlar majmui emas, balki murakkab, ko'p qatlamli va chuqur ichki mazmunga ega bo'lgan hodisadir. Har bir rang o'ziga xos tabiati, kayfiyati va ifoda

⁶² S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova "Rangtasvir" O'quv qo'llanma. Toshkent - «O'zbekiston» -2006. 15-b



imkoniyatlariga ega bo'lib, u makon, vaqt va yorug'lik ta'sirida turlicha idrok etiladi. Ranglarning bir-biri bilan o'zaro munosabati ularning ta'sir kuchini yanada oshirib, tasvirning umumiy kayfiyati va mazmunini belgilaydi. Ranglar hech qachon yakka holda mavjud bo'lmaydi, balki atrofidagi boshqa ranglar bilan uyg'unlik yoki qarama-qarshilikda namoyon bo'ladi. Issiq va sovuq ranglar o'rtasidagi munosabat, ranglarning och-to'qligi va kontrasti tasvirda fazo, ritm hamda harakat tuyg'usini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan rang tasviriy san'atda nafaqat predmetni ifodalovchi vosita, balki asarning ruhiy holatini belgilovchi muhim badiiy omil hisoblanadi. Shuningdek, ranglarning psixologik ta'siri ham alohida ahamiyatga ega. Har bir rang inson ruhiyatiga muayyan hissiy ta'sir ko'rsatib, tomoshabinda quvonch, sokinlik, jo'shqinlik yoki mulohazakorlik kabi holatlarni uyg'otadi. Aynan ranglar orqali asar tomoshabinda dastlabki taassurotni shakllantiradi va uning ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Ranglar doimo harakatda bo'lib, ularning idroki yonma-yon joylashgan ranglar, yorug'lik muhiti va kompozitsion yechimga bog'liq holda o'zgarib turadi. Shu sababli rang tirik va dinamik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Rang sezgirligi yuqori bo'lgan rassom asarlarida ranglar yanada jonli, ifodali va mazmunan boy bo'lib ko'rinadi. Umuman olganda, ranglarning xususiyatlarini chuqur o'rganish tasviriy san'atda ongli rang tanlash, obrazli fikrlash va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Ranglar haqidagi bilimlar nafaqat san'at amaliyotida, balki kundalik hayotda ham atrof-muhitni estetik idrok etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ranglarning xususiyatlarini bilish rassomlar, san'atshunoslar hamda ranglarni kuzatuvchi har bir inson uchun zarur va dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.S.BULATOV "Rangshunoslik" Darslik O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent -2009.

2.S.Abdiraslov, N.Tolipov, N.Oripova "Rangtasvir" O'quv qo'llanma. Toshkent - «O'zbekiston» -2006.

3.Allaberdiyevich, U. B. (2025, October). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. In *conference of innovative horizons in science & enginering* (Vol. 1, No. 2, pp. 81-86).

4.Karshiboeva, D. B. (2025). The importance of innovative methods in teaching composition. *ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ*, (3-1 (130)), 147-151.

5.Karshiboeva, D. B. (2025). The role of composition in activation of creative abilities. *ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ*, (3-1 (130)), 152-156.



6.KILIÇ ATEŞ S., BERİKBAEV A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekistan //Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025. – T. 28. – №. 53.

7.Xamidov, Dilshod. "the importance of teaching." engineering engineering computer graphics" in higher education institutions." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 4 (2024): 320-323.

8.Sherjonov, S., Nematov, O., Razzokova, G., Otabek, G., Yakubjonova, M., Karshiboyeva, D., ... & Abdullayeva, D. (2025). Economic analysis of green buildings certification systems in emerging economies. *Archives for Technical Sciences*, 2(33), 463-471.

9. "Chizmatasvir" fanini o'qitishdagi innovatsiyalar va "keys-stadi" texnologiyasi. Volume 1, Issue 01, aprel 2021.. 108-111. Usmonov Botir Allaberdiyevich

10.Bolbekovich, N. B. . (2024). Structure of Professional Competence Development of Future Fine Art Teachers: Integration of Technology, Method and Competence. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 5(3),

11.Jumaboyev Nabi Pardaboyevich. (2025, октябрь 23). Tasviriy san'at ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi va ularning ijodiy salohiyatga ta'siri.

12.Yusupova Shoxista Alimjanovna. (2025, октябрь 21). Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda kompozitsiyaning pedagogik ahamiyati.